

BANK AUDITINI TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li,
BMA Magistranti

Annotatsiya

Maqolada bank auditini tashkil qilishning nazariy asoslari ochib berilgan, bugungi kunda bank auditini tashkil qilishdagi muammolar va kamchiliklar hamda ushbu faoliyatini rivojlantirishdagi mavjud tosiqlarga to'xatalib o'tilgan, O'zbekiston Respublikasida auditorlik tashkilotlari soni va ularning faoliyatiga tahliliy yondashilgan va mavzu bo'yicha asoslantirilgan xulosalar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar. Bank auditi, auditor, xalqaro standartlar, ichki audit moliyaviy nazorati, tashqi audit.

THEORETICAL FUNDAMENTALS OF BANK AUDIT ORGANIZATION

Kamolov Sardorbek Davlatjon ugli

Graduate Student of The Banking and Finance Academy

Abstract

The article reveals the theoretical foundations of the organization of bank audit, focuses on the problems and shortcomings of the organization of bank audit today and the existing obstacles to the development of this activity, the number of audit organizations in the Republic of Uzbekistan and their activities is analytically approached and based on the topic conclusions were drawn up and recommendations for application in our country were given.

Basic words. Bank audit, auditor, international standards, internal audit financial control, external audit.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida tijorat banklarida ichki audit tekshiruvlarini olib borishning yangi iqtisodiy tizimi yuzaga kelmokda. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishida aynan bank tizimini isloh qilishga¹ alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarorining qabul qilinishi audit va auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirishga yana bir turtki bo'ldi. Auditorlik faoliyatini tashkil etishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni qo'llash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" PF-4947 sonli farmoni. 2017 yil 7 fevral

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ularning faoliyatini xolisona nazorat kilish, ichki nazorat tizimi va buxgalteriya hisobi tizimiga baho berish, boshqaruv bilan bog'liq xarajatlarini kamaytirish va operatsion xarajatlar tarkibini tahlil kilish orkali ularning optimal mikdorini belgilash, bank kengashiga ob'ektiv axborot etkazib berish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalani ko'rib chiqishda, bank auditining iqtisodiy mohiyatiga to'xtalib o'tish lozim.

Har qanday mamlakatda audit uning tarkibiy va funksiyasini belgilovchi moliyaviy-iqtisodiy tizimining elementidir. Boshqarishning turli talqinlari mavjudligi uning shakllanishi jarayoni hali tugallanmaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bizda etarlicha ildizlarga ega bo'lgan mamlakatlarda mavjud bo'lgan auditorlik ta'riflarini diqqat bilan ko'rib chiqsak, uning mazmuni jamoatchilikka xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning muayyan faoliyatiga bo'lgan ishonchining darajasi haqida ma'lumot berishdir.

Banklarning sog'lom, xavfsiz va ishonchli bank tizimi uchun mustaqil tekshiruvi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida, tijorat banklarida auditorlik faoliyatining boshlanishida eng avvalo, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari asosiy rol o'ynaydi.

O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda, xususan: birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma'muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda; ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo'yicha mavjud cheklovlari va tanlovlari o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shu jumladan, narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda;

uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo'lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan, auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta'minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta'sir choralarini cheklangani sharoitida

sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xattiharakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayapti;

beshinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti².

Albatta auditni, jumladan, bank auditini xalqaro standartlar asosida doimiy ravishda rivojlantirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida audit tashkilotlarining yangi iqtisodiy tizimi yuzaga kelmoqda. Ayni paytda, respublikada audit tekshiruvlari moliyaviy xizmatlardan biri sifatida tez sur'atlar bilan takomillashib bormoqda. Audit tekshiruvlari tizimi moliyaviy xizmatlar bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning talabiga javob beradigan nazorat turlaridan biri bo'lib hisoblanadi.


Auditorlik faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratish, auditorlik faoliyatini tartibga soladigan qoida va normalarni hamda me'yoriy hujjatlarni yagona normativ-huquqiy hujjatda unifikasiyalash va tizimlashtirish maqsadida 2021-yil 25-fevralda O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son Qonuni qabul qilindi.

2021-yil 1-yanvardan boshlab auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi bekor qilindi.

Auditorlar uchun zamonaviy sertifikatlash tizimini joriy etish, auditor malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihonlarining shaffofligini ta'minlash, auditorlik tashkilotlarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va Auditning xalqaro standartlari (AXS) bo'yicha xalqaro sertifikatga ega mutaxassislarni oshirish maqsadida Moliya vazirligining auditorlarni sertifikatlashtirish bilan bog'liq funksiyalarini auditorlarning respublika jamoat bilashmalariga o'tkazishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustda PQ-5210-son "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Yuqoridagi qonunchilik hujjatlari orqali auditorlik tashkilotlari va auditorlar faoliyati uchun bir qator yengilliklar yaratilib, ular soni ortib bormoqda. 2022-yil 1-yanvar holatiga auditorlik tashkilotlari soni 96 tani, mazkur auditorlik tashkilotlarida 651 nafar auditor faoliyati yuritib kelmoqda. 19 ta mahalliy auditorlik tashkiloti yirik xalqaro tarmoq va uyushmalar a'zolari hisoblanadi. Yurtimizda ham katta to'rtlik (Big-4) - "Ernst & Young", "PricewaterhouseCopers", "Deloitte and Touche" va "KRMG" xalqaro auditorlik tashkilotlarining sho'ba jamiyatlari faoliyat yurityapti.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarori



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida auditorlik tashkilotlari va sertifikatlangan auditorlar soni³

Bugungi kunda Moliya vazirligi tomonidan O'RQ-677-son Qonun talablariga muvofiq Auditorlik tashkilotlarining reestriga kiritilib, auditorlik faoliyatini amalga oshirib kelayotgan auditorlik tashkilotlarining ro'yxatini va undagi o'zgarishlarni Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilib bormoqda.

Bank auditini asosiy mohiyati bank tizimini bir maromda faoliyat kursatishini, kreditorlar, omonatchilar va mijozlar manfaatini ximoya qilish shu bilan birga sog'lom bank faoliyatini tashkil qilishda nazorat organlari mamlakatni ichki va tashqi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyatlarini tashkil etishdan iboratdir.

Bank auditini zaruriyligi banklarning bankrotlik riskiga juda yaqinlik bilan belgilanadi, bunda bitta bankning bankrotligi bir necha soha sube'ktlari bo'lmish kreditorlar va mijozlarning bankrotligiga olib kelishi yoki boshqa banklar faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Chunki iqtisodiyotda barcha soha sub'ektlari o'zaro zanjirli bog'liq hisoblanadi.

Ishonchli va samarali bank auditini avvalo bank xodimlarining ma'suliyatlarini hamda nazorat organlari xodimlarini malakasiga bog'likdir.

O'zbekistan Respublikasi Markaziy Bankining 2021 yil 7 maydagi "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 3302-sonli Nizomiga muvofiq, barcha tijorat banklarida ichki audit xizmati tashkil etildi.

Tijorat banklari tashqi auditiga oid me'yoriy hujjatlar bank nazoratini amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Bank auditining asosini banklarning o'zları tomonidan tayyorlagan moliyaviy hisobot shakli yoki auditorlik firmalari tasdiqlagan ish faoliyatining moliyaviy ahvoli va rentabelligi xaqidagi axborotlar tashkil etadi. Ko'pgina xalqaro me'yoriy hujjatlarda bank aktivlari va passivlarini to'g'ri baholash, ular faoliyatining moliyaviy natijalari haqqoniy baholanishi zarurligi ta'kidlanadi.

³ <https://www.mf.uz/uz/auditorskaya-deyatelnost.html#openModal-about5> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Biroq eng mukammal xalqaro standartlar ham tijorat banklarining real moliyaviy ahvoli va moliyaviy hisobotlaridagi ma'lumotlar bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mumkin ham emas, chunki hech qanday yo'l-yo'riqlar banklar o'z hisobi va mijozlari topshirig'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda barcha nostandard hollarni aks ettirolmaydi. Bunday paytda bank nazorati organlari tomonidan ishlab chikilgan dasturlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar, mustaqil auditorlar tomonidan bajariladigan tekshiruvlar katta ahamiyatga ega. Tashqi auditorlar nuqtai nazaridan, ichki auditorlar bilan hamkorlik ularga qator qulayliklar yaratadi, ya'ni bank faoliyati va operatsiyalarini yaxshiroq tushunish hamda tashqi audit jarayonida qayta o'tkaziladigan testlar sonini minimallashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, tashqi auditorlarning ichki auditorlar ish natijalari to'g'riligiga bo'lgan ishonchi ularga bank faoliyati masalalarining yanada keng doirasini qamrab olish imkonini beradi. Bunday amaliyot bank filiallari tizimi yanada kengayganida, moliyaviy xizmatlarning murakkabligi ortib, buning oqibatida auditga bo'lgan ehtiyoj oshganida ayniqsa foydali bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" PF-4947 sonli farmoni. 2017 yil 7 fevral
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarori
3. Moliya vazirligining rasmiy sayti <https://www.mf.uz/uz/auditorskaya-deyatelnost.html#openModal-about5>